

O'zbekiston Respublikasi chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar–oktabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 85 585 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 344 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 85 241 tani tashkil etdi.

2025-yilning yanvar–oktabr oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 356 606,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 10,3 %ga o'sdi. Jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 63 699,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 116,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa 292 907,0 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 109,0 %).

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati


2025-yil yanvar–oktabr oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes
va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi




II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 50 763 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 366 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 50 397 tani tashkil etdi.

Respublika bo'yicha 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 393 865,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,2 %ga o'sdi.


Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 109 546,1 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 120,6 %), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa 284 319,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 109,3 %). Respublikada jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi 72,2 %ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi
2025-yil yanvar-oktabr oylari, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o‘shish sur‘atlari
2025-yil yanvar–oktabr oylari



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:


[Ulgurji savdo hajmi o‘shish sur‘ati \(oylik\)](#)

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 25 887 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 113 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 25 774 tani tashkil etdi.

2025-yilning yanvar–oktabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 190 160,6 mlrd so‘mga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga o‘sdı. Savdo aylanmasining 84,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi, yirik korxonalar ulushi esa 15,5 %ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o‘shish sur‘ati dinamikasi
2025-yil yanvar–oktabr oylari



IV. Uslubiy ma’lumotlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasining statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, O‘zbekiston Respublikasining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, “Milliy hisoblar tizimi – 2008”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008), “Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko‘rsatkichini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” (MDH qo‘mitasi, 2011) xalqaro ko‘rsatmalar va tavsiyalaridan foydalaniladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlari norasmiy va yashirin iqtisodiyotning statistik baholash natijalari inobatga olingan holda hisoblanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o‘shish sur‘ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o‘shish sur‘ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘shish sur‘ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas‘ul:
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1180,
1185)

